

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar  
Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» Hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro  
xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 29-avgust - 4-sentabr N:35 (66524)



qildi. Agar mendan: «Mustaqillik o'zi nima va u sizga nima berdi?» deb so'rasalar, faxr va iftixor bilan: «Mustaqillik bu - o'z uyiga o'zi egalik qilish degani, erk va ozodlik degani. U bizga erkin fikrlash, so'zlashish, orzu qilish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini berdi», degan bo'lardim. Istiqlol tufayli sohibqiron Amir Temur bobomizni tanidik, Bobur Mirzo

## Istiqlolim - istiqbolim

manzarali daraxtlar uning chiroyiga chiroy qo'shibdi...

Bunday qurilishlar, ezgu ishlarning bari kim uchun qilinyapti? Albatta biz bolajonlar uchun. Ular bizga abadiy mulk bo'lib qoladi. Shunday ekan, biz ham yurtimizni kelajak avlodlarga bundan-da go'zalroq qilib qoldirishimiz lozim. Buning uchun murg'ak qalbimizda ona Vatanga muhabbat, milliy urfodatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimizga hurmat, sadoqat hissi bo'lsa kifoya.

# VATAN OVOZI

Tong shu'lasi ko'z qamashtirib,  
Belanchak misoli tebrantar olam.  
Alla aytar mayin shabboda,  
Dunyoni erkalar qutlug' bir kalom.  
Bu erk jarangidur va zafar sozi,  
Bu yog'du, bilsangiz, Vatan ovozi.

F. Jumayeva.

Vatan... Shu birgina so'z zamirida juda katta ma'no mujassam. Bu so'zni tilimizga olsak, ko'z oldimizda yurtimizning bog'u rog'lari, daryo-yu o'rmonlari, qiru adirlari, bepoyon kengliklari namoyon bo'ladi. Bu so'zning mohiyatini anglash uchun umrlarimiz ham kamlik qiladi nazarimda. Uning qadriga bag'rida o'ynab-kulib, ne'matlaridan bahramand bo'lib, shodu-xurram yurgan damlarimizda yetmasligimiz ham rost. Ta'til kunlari maktabni qo'msaganimiz kabi Vatanning qadrini ham bag'ridan yiroqlashgachgina anglab yetamiz.

1991-yil 31-avgustda O'zbekistonimiz sobiq ittifoqda birinchilardan bo'lib o'z mustaqilligini e'lon

ruhini shod etdik, imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy kabi buyuk ajdodlar avlodi ekanligimizdan darak topdik.

Shu oz fursatda juda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdik. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Tarixiy obidalarimizga e'tibor kuchaydi. Mashinasozlik, samolyotsozlik sohasida erishayotgan yutuqlarimizni-ku gapirmasam ham bo'laveradi...

Bundan besh oy avval poytaxtda bo'lgandim. Kuni kecha onam ikkimiz Toshkentga yana keldik. To'g'risini aytсам, shaharni, ayniqsa, uning eski shahar qismini taniyolmay qoldim. Eski, nurab ketgan binolar o'rnida kattagina saylgoh, amfiteatr, bolalar maydonchalari qad rostlabdi. Mashinalar tirband bo'lib yotadigan tor ko'chalar keng va ravon bo'libdi. Maydondagi rang-barang gullar,



Madina SAIDMURODOVA,  
Toshkent viloyati,  
Parkent tumanidagi  
5 - ixtisoslashtirilgan maktabning  
9 - sinf o'quvchisi.

Sirojiddin SAYID

## QIZALOQLARGA


Quyosh har tong nurga belar  
Ayvoningiz, ko'changizni.  
Uning o'zi yopib berar,  
Issiqqina kulchangizni.

Siz-hayotning yuzidagi  
Kulgichlaru xandalarsiz.  
Birovingiz kapalagu,  
Birovingiz handalaksiz.

Aylanadi vijir-vijir,  
Qaldirg'ochlar boshingizdan.  
Qanotlarin olgan ular,  
Sizning ko'zu qoshingizdan.

Siz bilan bu mehr bog'i,  
So'limas hech, hayot bo'lar.  
Tiriklik ham butun umr,  
Asal bo'lar, novvot bo'lar.

Umrlarning bahorida,  
G'unchalarsiz, gulchalarsiz.  
Bunchalar ham shirin hayot,  
Shiringina kulchalarsiz.





# XOTIRALAR GIRDABI

Oltin kuzning birinchi kuni,  
Yog'dularga cho'madi tuni.  
Bu kun armon tog'i qulagan,  
Ajdodlarning ruhi qo'llagan.  
Xalq quvnaydi, o'lkada bayram,  
Ammo buvim qalbida alam.  
Devordagi rasmga qarab,  
Boshlarini kaftiga tirab,



Xayollarning girdobiga g'arq,  
Hatto menga qararlar befarq.  
Bu qanday sir, boylab tilini,  
Vayron qilar o'rtab dilini?  
Sababini bilmoq istayman,  
Aytib bering, deya qistayman.  
Manglayidan quyilib terlar,  
Buvijonim xo'rsinib derlar:  
«Bir zamonlar bo'lgan, qizginam,  
Xalq boshiga tushgan og'ir g'am.  
Bevaqt ketdi yigitlar mardi,  
Ko'kragiga qadab xalq dardin.  
Ixtiyorib olib qo'lingdan,  
Tosh otganlar o'ngu so'lingdan.  
Qismat meni o'tmagan chetlab,  
Mushkul so'ylash yuragim betlab:  
Dehqon qizi bo'lganlar onam,  
Bo'lmaganlar hech birovdan kam.  
Osh pishirgan qilib oq tilak,

**Shahnoza RAVSHANOVA,**  
**Chirchiq shahridagi**

2-ixtisoslashgan maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.

Qozon to'la shirin sumalak.  
Mehr bilan o'stirib maysa,  
Ranjirdilar birov suv quysa.  
Momolarning qo'shig'in kuylab,  
Kavldilar ko'p ertak so'ylab.  
Bundan xabar topganda sho'ro,  
Jinoyat deb berishgan jazo.  
Ko'kdan tushib totimay malak,  
Oqizilgan suvda sumalak.  
Qadriyatlar yer bilan yakson,  
Zo'rlik hokim edi u zamon.  
Urf-odatni yo'q qilib tamom,  
Ta'qiqlangan hattoki taom.  
Har ko'klamda qilib sumalak,  
Buvim boqar ko'kka jonsarak.  
Nigohlari o'ychan, ko'zlar nam,  
Derlar: «Buni ko'rsaydi onam».  
Otam erkni qilgan himoya,  
Qalbi to'la ming turli g'oya.  
Ozod bo'lsin, degan elimiz,  
Iftixorga to'lsin dilimiz.  
Bo'lsa hamki mard o'g'lon, botir,  
«Dushman» deya nom olgan oxir.  
Istiqlolning quyoshi bilan,  
Oqlandi u - ko'ksi sarbaland.  
Bandilikdan qutuldi o'zbek,  
Endi bo'ldi o'ziga xon, bek.  
Butun jahon unga berdi tan,  
Ozod bo'ldi muqaddas Vatan!  
Buvijonim o'ksinib har dam,  
Derlar: «Qani ko'rsaydi otam».  
O'z yurtida bechora bobom,  
«Bosmachi» deb olgan ekan nom.  
E'tiqodi dilda yashirin,  
Oshkor qilmay duolar sirin.  
Xatmi-Qur'on qilganlar beun,  
Ajdodlarning pok ruhi uchun.  
Namoz o'qib deytilar doim:  
«Erkinlikni ko'rsaydi oyim».  
Meni quchib derlar: «Bolajon,  
Qo'rquvga qul bo'lma hech qachon.  
Tilingni xor qilmagin bolam,  
O'zlingdan kechmagin hech ham.  
Qalbing doim g'ururga to'lsin,  
G'am-alamdan yiroqda bo'lsin».  
Bari sirdan bo'lib men ogoh,  
Tilda o'tinch aylanar nogoh:  
Istiqlol bor bo'lsin ilohim,  
Panohingda asra, Ollohim!

Shampan qishlog'imizni ayni kunlarda bir ko'rsangiz edi: xuddi to'yga orolanayotgan kelinchakka o'xshaydi. Katta-yu kichik uni yanada obod, ko'rkam qilish harakatida. Uylari atrofini, mahallalarini supurib-sidirib, orasta qilishyapti. Tog' yon bag'rida joylashgan «Parkent» shirkat xo'jaligidagi o'zgarishlarni aytmaydizmi?! Sababini so'rasam, oyijonim, Mustaqillik bayramini munosib kutib olish uchun hozirlik ko'ryapmiz, qizim, dedilar...

Men mustaqillik tengdoshiman. Shunday bo'lsa-da, avvallari mustaqillik nimaligini tushunmasdim. Yoshim ulg'aygani sari ota-onam, buva va buvilarim suhbatiga quloq tutish, gazeta-jurnallar varaqlash, televizor tomosha qilish

## MEN TENGI O'SMIR EKAN

barobarida istiqloq haqidagi tasavvurim ham yanada boyib boryapti. Mening anglashimcha, istiqloq bu - bunyodkorlik, farovonlik degani ekan. Shunday bo'lmaganida, shahar va qishloqlarimiz, umuman, O'zbekistonimiz shu oz fursat ichida tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketarmidi? Birgina tumanimizdagi Novdak, Nevich, Sanganak qishloqlarida qurilgan yangi maktab binolari haqida avvalgi maqolamda gapirib o'tgandim. Hozir esa bu qishloqlarda qad rostlayotgan ko'rkam binolar haqida so'zlamochiman. Qishlog'imiz markazidagi chorraha kengaytirildi, zamonaviy uslubda qurilgan ikki qavatli vrachlik punkti, yoqilg'i quyish hamda savdo shahobchalari ham qishlog'imiz ko'rkiga ko'rk bo'ldi. Bizga qo'shni qishloqlarda ham shu kabi ko'rkam binolar ko'zga tashlanadi.



Yuqorida, men mustaqillik tengdoshiman, dedim. Demak, yurtimiz ham men tengi o'smir ekan-da. Hali yosh bo'la turib shunchalik buyuk ishlarni amalga oshirayotganidan hayratdaman. Dadamning aytishlaricha, Amerika, Yaponiya kabi yirik davlatlarning oyoqqa turishi, rivojlanishi uchun 60-70 yil kerak bo'lgan ekan. Yurtimiz 14 yil ichida shuncha yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsa, 60-70 yildan keyin uning qanday ko'rinishda bo'lishini bir tasavvur qilib ko'ring-a...

Aziz bolajonlar,  
sezayotgandirsiz, shu kunlarda  
diyrimizda bayram shukhi kezib  
yuribdi. Keksa-yu yoshning qalbi quvonchga, faxr va  
iftixorga to'la. Tahririyatimizga kelayotgan xat va  
xabarlar ham shukronalik ruhi bilan sug'orilgan.  
Chunki yana ikki kundan so'ng eng ulug', eng  
qutlug' bayramimiz - Mustaqilligimizning 14  
yilligini keng tantana qilamiz.  
Shu kuni Siz aziz o'quvchilar uchun qo'shaloq  
bayram bo'ladi: Bilimlar kunini ham nishonlaysiz.  
Barchangizni ayyom bilan  
muborakbod etib, yangi o'quv  
yilida yangi-yangi zafarlar tilab  
qolamiz.

Eh-he, gapiraman desam, gap ko'p.  
Gapni qisqa qilib, barcha  
tengdoshlarimni  
Mustaqillik bayrami bilan  
chin dildan tabriklayman.

**Lola TURDIBOYEVA,**  
**Toshkent viloyati,**  
**Parkent tumani,**  
**Shampan qishlog'idagi**  
**18 - maktabning 8 - sinf**  
**o'quvchisi.**

– Urushning suronli yillari... Otam urushga ketgan, onam esa bir burda non uchun dalada tinmay mehnat qilardi. 9 yoshimdan onamdan ayrilib, ammaning qo'lida qolganman.

Bir kuni ammam pochchamdan xat-xabar bor-yo'qligini bilib kelish uchun chiqib ketib, uch kun uyga qaytmadilar. Shu uch kun men uchun azob bo'lgandi.

Uyda suv va piyozdan bo'lak hech vaqo yo'q edi. Ochlikdan sillam qurib, o'rnimdan turolmay qoldim. Bu ham qilgandek, qahraton sovuq zabtiga olgandi. Oyoqlarim chalishib bo'lsa-da, o'rnimdan turdim. O'tin yorib, biroz isinib olmoqchi bo'ldim. Boltani o'tinga urganimni bilaman, yuzimga issiq bir nima sachrab ketdi. Qarasam qip-qizil qon. Oyoqlarim titrab, dodlab yubordim. Mendan sal narida ishlayotgan Hasan bobo yonimga yugurib keldi. Oyoqlarimga qarab, nihoyatda qo'rqib ketdi. Men ham qo'rqa-pisa oyoqlarimga qaradim. Mana shu kuchsiz va jonsizdek qo'llarim bilan oyog'imning uch barmog'ini kesib yuboribman. Og'riqning zo'ridan hushimni yo'qotib, 2 kun deganda bazo'r o'zimga kelibman. Ammam ham ikki kun qoshimdan ketmabdilar. Ma'lum bo'lishicha, u pochchamdan qora xat olgach, o'zini yo'qotib qo'yibdi. Ot-ulovlar kam bo'lgani bois 3 kun yo'llarda

sarson-sargardon bo'lib, och-nahor uyga yetib kelibdilar.

Ko'zimni ochganimni ko'rgan ammam xursand bo'lib ketdilar va Hasan bobodan bir kosa un olib, men uchun issiqqina atala

pishirib berdilar. O'sha kuni Hasan bobo yonimdan nari ketmadilar. Ammam esa ko'ngli to'lib, og'ilxonada yig'lay-yig'lay uxlab qolibdilar.

Og'riqning zo'ridan reza-reza ter bosib ketayotgan peshonamni silagancha Hasan bobo menga tasalli berardi:

–Xafa bo'lma ona qizim, bu oting o'chgur urush ham tugab qolar. Keyin «tinchlik» degan muqaddas so'z



jaranglaydi. O'shanda hech kim sen kabi bevaqt yetim bo'lmaydi, hech kim ammam kabi ko'z yosh to'kmaydi. U kunlarni biz ko'rolmaymiz, lekin sen albatta ko'rsan. Endi esa biroz uxlab ol, tushingda tinch, osuda hayotni ko'rgin,- degandilar...

Bobo haq ekan. Men u orzulagan kunlarni ko'ryapman, tinchlikning, xotirjamlikning gashtini suryapman. Har gal oyoqlarimga qarasam, Hasan bobo, sho'rlik ketaman. Shunday kunlarning, tinchlikning qadriga yetmayotgan kimsalar haqida eshimsam, fig'onim falakka chiqib ketadi. Axir bu kunlar uchun otabobolarimiz, momolarimiz ozmuncha mashaqqat chekishdimi?..

Momo jimib qoldilar. Qarasam, nursiz ko'zlarida jiqqa yosh halqalanyapti. Chakkalaridagi rayhonni bir hidlab olib, chuqur xo'rsindilar-da, o'zingga shukr, Ollohim, deb qo'yidilar...

**Dilfuza JUMANOVA,**  
**Samarqand viloyati,**  
**Paxtachi tumanidagi 29 - o'rta maktabning**  
**8 - «B» sinf o'quvchisi.**

## OYOG'IMNING UCH BARMOG'Y QANI?



Assalom, maktab!

Jizzax viloyatining uzoq chekka qishloqlarida yillar o'tishi bilan eskirib, qulash arafasiga kelib qolgan maktablar talaygina. Qishloq ahli, maktab

maktab ham tumandagi qaytadan ta'mirlangan ilm maskanlaridan biri. 1991-yildan beri tashlandiq holatiga kelib qolgan bino o'rnida 180 o'rinli


ishlayaptilar. Matematika o'qituvchisi Luqmon Anorboyev 35 foiz ustama haq oladi. Bunday ustozlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi.

## YANGI MAKTAB-YAXSHI MAKTAB

o'qituvchilari va o'quvchilari ularning o'rnida barcha qulayliklarga ega, shaharda gilaridan qolishmaydigan ko'rkam binolar qurilishini ko'pdan orzu

maktab qad rostladi. «Verbut» firmasi 116 mln. so'm miqdorida qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirdi. Natijada 9 ta xonadan iborat ko'rkam va chiroyli bino dunyoga keldi.

Yangi maktab binosi zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlanmoqda. Tabiiy gaz keltirilib, isitish tarmog'iga ulandi. Kuzgi-qishki tayyorgarlik ishlari nihoyasiga yetdi. Maktabda ro'y bergan ijobiy o'zgarishlar istiqloq sharofatidir. Siz suratda ko'rib turgan ko'rkam maktab binolari mustaqillik inshootlaridir.



qilardilar. Begimqul Qulboyev nomli 8-maktabning yangi binosi katta-kichikka olam-olam quvonch baxsh etdi. Maktab qurilishini «Meros» ko'p tarmoqli qurilish firmasi amalga oshirdi. 320 o'rinli ilm maskanining qayta ta'mirlanishi uchun 154 million so'm mablag' sarflandi. Sport zali, faollar zali, 2 ta sinfxona, oshxona yangidan bunyod etildi.

Hozir maktabning 53 nafar o'qituvchisi xonalarni jihozlash, maktab hovlisini obodonlashtirishda faol ishtirok etmoqdalar. Maktab yangi o'quv yilida 420 nafar o'quvchini o'z bag'riga oladi.

-Maktabimizda o'z fanining fidoyi o'qituvchilari ko'p,-deydi maktab rahbari Akmal Qayumov. -Ularning aksariyati hukumatimiz qarori asosida ustama haq olib

Abu Ali ibn Sino nomli 15-

Abdusattor SODIQOV, jurnalist.

## BIR EMAS, IKKI QUCHOQ...

Yana ikki kundan so'ng qadrdon maktabim quchog'iga qaytaman. Ishonasizmi, hamma ta'tilni intizorlik bilan kutsa, men, maktab qachon boshlanarkin, deya kun sanab o'tkazdim. Chunki sinfdoshlarimni, ustozlarimni, ayniqsa boshlang'ich sinf rahbarim Ma'suda opa va ingliz tili ustozim Mr. Gordon Gent Leelarni juda-juda sog'inib qoldim-da.

Kecha dugonalarim bilan maktabga borgandik, uni ko'rib, tanimay qoldik. Barcha sinf xonalari ta'mirlangan, toza, ozoda. Yuqori sinfdan o'qiydigan aka-opalarimiz, ustozlarimiz hashar qilishayotgan ekan. Ustozimiz Ma'suda opani ham ko'rdim. 1-sinfga qadam qo'yayotgan



kichkintoylarni qabul qilib olayotgan ekanlar. Bizni ko'rib, xursand bo'lib ketdilar. «Endi tez-tez kelib, menga yordam berib turasizlar-da», dedilar...

Maktabga ilk bor qadam qo'ygan kunlarimni bir-bir eslab, xursand bo'lib uyga qaytdim.

1 Sentyabr kuni bir emas ikki quchoq gul ko'tarib maktabga boraman. Birini Ma'suda opamga, ikkinchisini esa yangi sinf rahbarimga beraman.

Mohira ABDUSHUKUROVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi  
116-maktabning 5-sinf o'quvchisi.



\* Bilim haqida so'zlayman, so'zimga quloq sol, ey do'st, ilmli kishiga o'zingni yaqin tut.

\* Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, (shunga ko'ra) ilmli bo'l, baxt yo'lini izla.

\* Bilimlik kishi baholik dinordir, ilmsiz, johil kishi qimmat-siz yemishdir.

## ILMSIZ ILKISIZ SUVAKDIR

\* Ilmlik kishi bilan ilmsiz odam qachon teng bo'ladi, bilimlik xotin kishi - er kishidir, bilimsiz erkak - xotin kishidir.

\* So'ngakda ilik bo'lishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir, er kishining ko'rki aqldir, so'ngakning ko'rki esa ilikdir.

\* Ilmli kishilarning (nomi) mashhur bo'ladi, bilimsiz (kishilar) esa tiriklayin o'ldi hisob va bu unga ko'rgulikdir.

\* Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilmsiz kishining o'zi hayot bo'lsa ham oti o'likdir.

\* Bilimlikning biri bilimsizning mingga teng, ilmli kishilar ilm-ma'rifatning qadriga yetadi.

\* Endi o'zingni sinab, uqib, boqib ko'r, bilimdan foydaliroq qanday narsa bor?

## O'ZIM O'QIGIM KELADI

Men — Akbarxo'jayeva Fazilatxon bu yil 2 sentabrda ilk bor maktabga chiqaman. Bu kuni juda orziqib kutyapman. Chunki

Asolatxon opajonimga o'xshab faqat a'lo baholarga o'qish niyatim bor. Bog'chada juda ko'p narsalarni o'rgandik. She'r yodlash, rasm chizish, loydan shakllar yasash, qog'oz va chiqindi narsalardan xilma-xil narsalar qurish va o'yinchoqlar yasash, qo'g'irchoqlarimizga liboslar tikish,



ertak va hikoyalar so'zlash, musiqa tinglash, ashula va raqs ijro etish, soya teatri personajlarini tayyorlash va rollarga bo'linib olgan har xil tomoshalar ko'rsatish kabi mashg'ulotlarimiz kelgusida maktabda o'qishimizga juda katta yordam beradi, deb o'ylayman.

Buvijonim opam ikkalamizga juda ko'p rasmlar olib beradilar. Ularning ayrimlarini Asolatxon opam menga ham o'qib beradilar. Lekin, baribir ularni o'zim o'qigim keladi. Tezroq hamma harflarni bilib olsam-u, Muhammadjon ukamga ham ertak va hikoyalar o'qib bersam, deb orzu qilaman.

Fazilatxon AKBARXO'JAYEVA,  
Toshkent shahar, Hamza tumani.

Ahmad YUGNAKIY

\* Bilim bilan olim yuqoriga ko'tariladi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtiradi.

\* Bilimli kishi ilmni farqlaydi, ey do'st, ilm qadrdini ma'rifatli odam biladi.

\* Ilmning qadrdini kishiga bilim bildiradi, ma'rifatni nodon, tuban kishi nima qiladi.

\* Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir, unga o'git-nasihat foydasizdir.

## Biz suv ichgan buloqlar

Turli yuvuqsizlarga (iflos kishilarga) yuvin deb buyurilsa, toza bo'lur, ammo johil qancha yuvinmasin, pok bo'lmaydi.

\* Bilimli kishi o'z ishini bilib qiladi, bilib qilgan ishiga keyin o'kinmaydi.

\* Turli ishlar yuz bersa, bilimsiz nazdida o'ng ko'rinadi (bu) unga tashvish, bundan boshqa chora (o'ng narsa) yo'q.

\* Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi, keraksiz so'zni ko'mib yashiradi.

\* Ilmsiz kishi nima gapirsa, nodonligi sababli so'zlaydi, shuning uchun uning tili o'z boshini yeydi.

\* Bilimli kishining so'zi o'git - nasihat, odobdir, shuning uchun ilmlilarni Arab, Ajam olqishlaydi.

\* Molsiz faqir kishiga uning ilmi tuganmas boylikdir, hisobsizga uning bilimi yechilmas (ochilmas) hisobdir.



Singlim uchun darsliklar sotib olgani kitob do'koniga kirgandim. U yerda «Iste'molchilar huquqi» degan kitobni xarid qilayotgan bir dugonamni ko'rib qoldim. Nega endi biror badiiy kitob emas, aynan shu kitobni sotib olayotganining sababini so'rasam, quyidagi voqeani

Guruchni esa uyingdan almashtirib kelgansan», deb turib olishdi. Yig'lagudek bo'lib uyga qaytdim. Quruq qo'l bilan qaytganimni ko'rgan dadam tutoqib ketdilar va «qani, men bilan yur-chi», deya do'kon sari boshladilar.

### Huquqingizni bilasizmi?

uchun ham mana shu kitobni sotib olyapman, o'z huquqlarimni bilib olay...

Dugonamning gaplari meni ham o'ylantirib qo'ydi. So'nggi paytlarda ommaviy axborot vositalarida bot-bot yangrayotgan iste'molchilarning

o'z haqlarini talab qilishga chorlovchi da'vatlar bejiz emas ekan-da.

O'tgan yili maktabimizda ilk bor «Iste'molchilar huquqini himoya qilish» mavzusida ko'rik-tanlov bo'lib o'tgandi. Unda men ham qatnashgandim. Garchi g'olib bo'lmasam-da, o'zim bilmaydigan anchagina huquq va burchlarimni bilib olgandim. «Bugun barchangiz g'olibsiz. Chunki bunday tanlov ilk marotaba o'tkazilyapti», deya ko'nglimizni ko'tarishgandi hakamlar...

O'ylab qarasam, o'sha tanlov ham shunchaki o'tkazilmagan ekan-da. Shunday tanlovlar ko'plab o'tkazib turilsa, biz iste'molchilar o'z huquqlarimizni bilib olardik. Shu tariqa sifatsiz mahsulotlar o'z-o'zidan yo'qoldi.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,

SHO'IM qoshidagi «Yosh jurnalist» to'garagi a'zosi.

## «CHEKING QANI, QIZALOQ?»

so'zlab berdi:

-Kecha akamning tug'ilgan kuni edi. Oyim osh damlab, keks pishirmoqchi edilar. Lekin guruch bilan kakao qolmabdi. Mahallamiz boshidagi do'kondan ularni xarid qildim. Osh damlayotganda guruchni ko'rib, hayron qoldik: faqatgina kurmak bo'lganda ham indamasdik (sotuvchi menga «tozalangan guruch» deb qimmatroqqa sotgandi), guruchning ichi hasharotlarga makon bo'libdi. Xullas, uning uchdan bir qismi yaroqsiz bo'lib chiqdi. Bu ham mayliya, kakaoni ochib ko'rsak, ne ko'z bilan ko'raylikki, uning ham yarmidan ko'prog'i qum ekan. Oyim: «Sen xarid qilganding, endi o'zing qaytarib olib bor-chi, olisharmikan?» dedilar. Olib borsam: «Bo'lishi mumkin emas, bizda faqat firmaning mollari sotiladi.

Sotuvchilar dadamga ham menga aytgan gaplarini takrorlashdi. «Xo'p, bularni bizning do'konimizdan olgan bo'lsangiz, unda cheki qani?» deyishdi. Dadam menga qaradilar, men esa yerga.



«Mayli, hammasi xudoga ayon. Uning o'zi sizlarga insof bersin», deya chiqib ketdilar dadam noiloj. Keyin bilsak, ular hech kimga chek berishmas ekan. Shuning

## OTAMGA ATALGAN QO'SHIQ

– Men Glier nomli musiqa maktabining prima-rubob sohasi bo'yicha 9-sinf o'quvchisiman. 4-sinfgacha Shayxontohur tumanidagi 320-maktabda tahsil olganman. Meni maktabda yaxshi o'qiganim uchun sinfdan-sinfga ko'chirishgan. Prima-rubob sinfida qizlar kam bo'lgani bois meni shu sinfga o'tkazishgan. Bu sinfda bizga Abdurashid aka Yusupov saboq berayaptilar.



Maktabimizda yana qo'shimcha darslarga ham qatnashaman. Pianino, nay chalaman, yana xorda qo'shiq ham kuylayman. Menga pianino chalishdan Margarita Xvan saboq beradilar.

### Menga so'z bering

«Variatssa», «Minuet», «Rondo», Betxovenning «Eliza» kuylarini bemalol chala olaman. Bundan tashqari, nayda milliy musiqalarimizni ham chalib turaman. Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblar o'qiyman, oyijonimga uy yumushlarida yordamlashaman. Yana ta'til kunlarida uyg'urcha taomlar va qandolat mahsulotlari pishirish kurslarida o'qidim. Hozir «Zamin» studiyasiga qatnayapman. U yerda vokal yo'nalishi bo'yicha ustozim Fozil akadan ovozni sozlash, qo'shiq aytayotganda to'g'ri nafas olish yo'llarini o'rganayapman.

Men kelajakda Gulsanam Mamazoitova, Feruza Jumaniyozova, Rayhonalarga o'xshagan xonanda bo'lishni orzu qilaman.

Ilk qo'shig'imni dadajonimga bag'ishlash niyatidaman. Chunki insonga ota-onadan aziz inson bo'lmasa kerak...

Maftuna UMAROVA.

### Giyohvandlik — asr vabosi

Salomatlik va tinchlik. Bilasizmi, aziz gazetxon, hech kuzatganmisiz, nega bobolarimiz bizni duo qilayotib, eng avval sog'likni tilaydilar? Nega salomatlikka inson hayotining garovi deb qaraydilar? Chunki kishining tani sog', boshi omon bo'lsagina hayot zavqini his etib yashaydi. Dardni Xudo beradi deyishadi. Ammo shunday xastaliklar bo'larkanki, inson uni o'z ixtiyori bilan sotib olarkan. Kelajakka qadagan lochin ko'zlarida porlagan shijoatni,

## OG'U AJAL DEMAKDIR

baxtini, hayotini barcha-barchasini nafs degan balo yo'lida garovga qo'yarkan. Bu – og'u garovi. Giyohvandlik dardiga muhtalo bo'lganlar avvaliga lazzatli, keyin esa qasosli umr ichida yashaydilar. Inson umri bamisli yangi o'tqazilgan nihol kabi nozik. Bu niholning ertaga gurkirab o'smog'i, meva bermog'i uchun uning olayotgan nafasi beg'ubor, ichayotgan suvi pokiza bo'lmog'i kerak. Giyohvandlik esa ana shu nihol ildiziga tushgan qurtdir. Agar vaqtida bu qurt yo'q qilinmasa, gullagan umr bahorining xazonrezgi kuzga aylanishi turgan gap. Umrning mazmunli, shijoatli va go'zal tarzda o'tmog'i insonning o'z qo'lida. Giyohvandlik ko'chasiga kirgan yuraklar bir umrlik tanholik qismatiga mahkum. Bugun dunyo hamjamiyati ildiziga bolta urishga chog'lanayotgan bu illatni imkon qadar tezroq quritish darkor. Bolalikning beg'uborligi hali yuragini tark etmayoq hayotini zahri qotilga topshirgan dunyodagi barcha yoshlarga yagona o'tinchimiz: o'tmishda o'zlarining buyukligi bilan dunyoni tebratgan alloma-yu, ajdodlarimizning nurli yo'llari haqqi, bu uqubatli dunyoingizdan voz keching. Shundagina kelajagingiz porloq, yo'llaringiz ravon bo'lg'usi.

Sadoqat DADAYEVA,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi  
1-o'rta maktabning 11-sinf o'quvchisi.


## TO'RRTA ILLAT YO'QOLSIN!

Giyohvandlik va SPID,  
Kashandalik, ichkilik  
Mana shu to'rta illat,  
–Yo'q bo'lsin,–der har millat.  
Ong, tanni zaharlaydi,  
Bildirmasdan nish urib.  
Bir kun xarob qiladi,  
Olar joningni so'rib.

Biz ularga «Yo'q!» deymiz,  
Bo'ysindira olmaysiz.  
Irodamiz mustahkam,  
Sira yenga olmaysiz.  
Sport bizga hamrohdir,  
Maktab bilim dargohdir.  
Gar hammamiz birlashsak,  
Illat qochar, qo'rqqodir.

Barcha illat yopishar,  
Sen bekorchi bo'lganda.  
Giyohvandlar chorlashar,  
Ziyrakliging o'lganda.  
Giyohvandlik va SPID,  
Kashandalik ichkilik —  
Bu to'rta balo-qazo,  
Bermasin bizga jazo.

Bahrom TOJIYEV.



«Sport –salomatlik garovi»

Aziz bolajonlar, tengdoshingiz — Namangan viloyati, Namangan tumanidagi 37-maktab o'quvchisi Akramjon SHAROFIDDINOV chizgan rasm qahramoniga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?



«Xalqimizda azal-azaldan o'g'il bolalarni naslimiz davomchilari, Vatanimizni himoya qiladigan posbonlarimiz, xalqimizning sha'ni-shuhrati, deya e'zozlashadi. Shu bois ularni yoshligidanoq iligi to'q bo'lib o'sishiga alohida e'tibor berilgan. Aytishlaricha, qirg'inbarot urushlar paytida daladan bir kaftgina sholi donalarini terib kelgan momolarimiz, uni po'stidan ajratib olganicha palov tayyorlab, oiladagi o'g'il bolalarga yedirishgan ekan. Sababi, ular haqiqiy er yigitlar bo'lib ulg'ayishsa, qo'rg'onlarimiz mustahkam, tinchligimiz barqaror, tunlarimiz osuda, kunlarimiz charog'on bo'ladi, deb niyat qilishgan.

Aziz bolajonlar! Sizlar ham yuqorida aytganlarimizdek vitaminlarga boy mahsulotlarni iste'mol qilsangiz, a'lo baholarga o'qisangiz, sport bilan muntazam shug'ullanib borsangiz, albatta er yigitlar – sher yigitlar bo'lib voyaga yetasiz. Ulg'ayganingizda esa haqiqiy yurt himoyachilariga aylanasiz. Bugungi suhbatimiz ham aynan ana shu xususidadir».

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi Mudofaa ishlar bo'limiga kirib borganimda, bir guruh yigitlarning allanimalar haqida qizg'in bahslashayotgani diqqatimni tortdi. Fursatni qo'ldan boy bermasdan ularni suhbatga chorladim:



**Artur YULUSHEV, Mudofaa ishlari bo'yicha bo'lim boshlig'ining o'rinbosari, mayor:**

– Bo'limimizda zahiradagilar, nafaqadagi harbiylar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazib turamiz. Ularning yillar davomida to'plagan o'ziga xos harbiy tajribasi yoshlarimiz uchun ibratli maktab vazifasini o'tamoqda. Xizmatga jo'natilgan yigitlarimizning ahvolidan xabar olib turamiz. Harbiy qismdagi sharoitlari ularning imkoniyatlari hamisha zobitlarimiz nazoratida.

**Akromjon PO'LATOV:**

– Yoshligimdan parashyutda sakrashni orzu qilaman. Yuqori Chirchiq shahrida bo'lg'usi parashyutchilarni saralab o'qitisharkan. Bu men uchun ayni muddao. Shu yil Tibbiyot bilim yurtini tugatdim. Harbiy xizmatdan qaytganimdan so'ng, Tibbiyot akademiyasida o'qishimni davom ettiraman.

**Sobirjon DAVLATOV:**

– Mudofaa ishlari bo'limida, kasbga yo'naltirish bo'yicha Mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» jamiyati orqali haydovchilar tayyorlash kurslariga o'qishga yuborisharkan. Do'stlarim Anvar, Ibrohimlar bilan birga ushbu kasbni puxta egallab harbiy xizmatga bormoqchimiz. To'g'ri, harbiy mashinalarni boshqarish kishidan katta bilim, tajriba talab qiladi. Uning o'ziga xos mashaqqatlari bor. Biz o'z kasbimizni puxta egallay olsak qiyinchiliklarni yengib o'tish oson bo'ladi.

**Abduhalil YO'LDOSHEV, Mudofaa ishlari bo'yicha bo'lim boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik:**

– Voyaga yetgan yigitlarimiz 18 yoshdan 27 yoshgacha harbiy xizmatni o'tashlari shart. Buning uchun ular dastlabki tibbiy ko'riklardan, maxsus test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tishlari lozim. Chaqiriluvchilar 100 metrga, 1 kilometrga yugurish, turnikda tortilish, ma'naviy ruhiy tayyorgarlik kabi qator sinovlardan o'tib, o'ziga xos ravishda ball to'playdilar. Eng yuqori ko'rsatgich 34 ball. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan yigitlarimizni saralab bir yillik harbiy xizmatga yuboramiz. Ko'pchilik yoshlar harbiy havo desanti qo'shinlari, chegara qo'shinlarida xizmat qilish istagini bildirishadi. Buning uchun yigitlarimiz bolaligidanoq o'zlarini chiniqtirib borishlari lozim.



## ER YIGITLAR – SHER YIGITLAR

**Shuhrat HALILOV, Sobir Rahimov tumani Mudofaa ishlar bo'limi boshlig'i podpolkovnik:**

– Barcha joylarda bo'lgani kabi bizning bo'limimizda ham shu yilning 4-iyulidan 25-sentabrigacha harbiy chaqiriq bo'yicha komissiya tuzilgan. Tuman «Kamolot» YoIH, Mahalla xayriya jamg'armasi, tuman Xotin-qizlar qo'mitasi, bolalar sportini rivojlantirish qo'mitasi vakillari bilan birgalikda ish olib borayapmiz. Hududimizda joylashgan 58 ta



mahallalarning har birida bo'limimiz zobitlari xizmat turlari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishmoqda. Ayniqsa, «Mustaqillik», «Shodlik», «Chig'atoy darvoza» mahallalarining To'xtamurod Mavlonov, Komiljon G'afurov, Maqsudxo'ja Azimxo'jayev kabi faollari joylarda ota-onalar, chaqiriq yoshidagi yigitlar bilan bo'lgan uchrashuvlarimizni qiziqarli o'tishida yaqindan yordam berdilar. Komissiya raisi sifatida shuni ta'kidlashim joizki, olib borayotgan ishlarimizning samarasi yuqori. Yoshlarimizning yildan-yilga ongi, tafakkuri, bilim-tajribasi oshib bormoqda. Ular jon-dili bilan harbiylikka havasmand. Ona-vatanimiz himoyasiga shay. Diyorimizda mustaqillik shukuhi kezib yurgan shu kunlarda ertamiz egalari yoshlarimizning g'ayrat-shijoatini ko'rib qalbim g'ururga to'ladi. Fursatdan foydalanib, yurtdoshlarimni, Ona-vatanimiz sarhadlarini hushyor turib qo'riqlayotgan harbiylarimizni, bo'lajak askarlarimizni Istiqlol bayrami bilan qizg'in qutlayman. Ularga sog'lik-omonlik tilayman!

**Madaminjon AHADOV:**

– Maktabni tugatib, Abu Rayhon Beruniy nomli Toshkent Texnika Universitetiga hujjatlarimni topshirgan edim. To'plagan balim yetmadi. Uydagilar bilan maslahatlashib armiya safida xizmat qilishga qaror qildim. Xizmat vazifasini yaxshi o'taganlarga harbiy qism tomonidan oliy o'quv yurtlarida tahsil olish uchun tavsifnomalar berilarkan. Bu esa abituriyent umumiy eng yuqori balldan 20 foiz qo'shimcha imtiyozga ega degani. Men ham ushbu imkoniyatni qo'lga kiritishni dilimga tugib qo'yanman. Xizmatimni sidqidildan o'tayman. Qaytganimdan so'ng esa albatta universitetda o'qiyman.

**Vatan posboni bo'lish pok inson bo'lish demakdir!**

## BOLAJON

Bir gul yaprog'idek titraydi ko'ngil,  
Sening sho'xligingdan ketganча erib.  
Sening ko'zlaringga qilganча havas,  
She'r bo'lib to'kildi ko'ngilda sas.

Sabozan tebransa qirda qizg'aldoq,  
G'unchalar husnini qilsa tamanno.  
Kulguning jarangi tutib jahonni,  
Hayotning zavqiga qo'shasan ma'no.

Bolajon ko'zlarim ko'zingga o'xshar,  
Sho'xliklaring ketar o'zimga o'xshab.  
Kulgingdan ko'nglim quvonib ketar,  
Sevinchin poyingga yuborar to'shab.

Hayrating tushda-yu shirin ertakda,  
Chaqnoq nigohlaring hali g'aflatda.  
Kun o'tib, yil o'tib ulg'ayib shu on,  
Bo'larsan hayotda yetuk bir inson.



Bolajon xalqimning erkasi,  
Kechasi, buguni, ertasi.  
Bukilmas qaddining belbog'i,  
Va minglab ko'ngilning ardog'i.

Xalqingdan qolajak senga bir mayoq,  
Shu mayoqdan porlab turar yo'llaring.  
Hali buyuk ezgu ishlar qilajak,  
O'yinchoqqa tashna jajji qo'llaring.

**Umida RUSTAMOVA.**

**Yulduz ASHUROVA, Safarbarlik chaqiruv rezerv bo'limining katta yordamchisi:**

– Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga muvofiq shartnoma asosida harbiy xizmatga chaqiriluvchilar minimal ish haqining 25 barobari miqdorida, ya'ni 195.875 so'm miqdorida pul to'laydilar. Ushbu summani choraklarga bo'lib to'lash ham mumkin. Buning uchun bir yil avval shartnoma tuziladi. Dastlabki to'lov bir yo'la 50 ming so'mni tashkil etadi. Bir oylik harbiy xizmatga chaqirilganlar ham qasamyod qabul qiladilar. Ularga harbiy guvohnoma beriladi. Bir yillik xizmat esa majburiy bo'lib, u shartnomasiz amalga oshiriladi.

**Erta tongdanoq o'z xizmat vazifalariga kirishgan bo'lim jamoasi xizmat yoshidagi yigitlarning har biriga iliq muomalada bo'lishib, xizmatga oid barcha kerakli hujjatlarini bir zumda tayyorlashmoqda. Tuman Mudofaa bo'limidan qaytar ekanman, harbiy jamoaning ishlariga rivoj tiladim. Ko'zlarida shodlik, yuraklarida cho'g' yonib turgan bo'lg'usi askar yigitlarimizning, yetti muchali sog', iligi hamisha to'q bo'lsin.**

**Suhbatdosh: Jamila ERDONOVA.**







Aziz bolajonlar, bugungi «Bola va dunyo» rukni mehmonimiz Eron Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Elchixonasi huzuridagi Madaniyat vakolatxonasi raisi, Elchixonaning madaniy aloqalar bo'yicha maslahatchisi «Sino» ilmiy-adabiy, falsafiy-irfoniy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali bosh muharriri Abbosali VAFOIY janoblari. Ular sizlarni Mustaqillik ayyomi bilan qutlar ekanlar, yangi o'quv yilida kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilaydilar.

**-Eronlik maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik hayoti bilan tanishtirangiz.**

-Bizda ham xuddi sizlarinikidek ta'lim-tarbiya avvalo bog'chadan boshlanadi. U «Mardi kudak» yoki «Pish dabiston» deyilib, uch yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalarning sog'lom o'sishiga, ravon so'zlashiga katta e'tibor qaratadi. Bolalar yozuvchizuv va hisob-kitobning boshlang'ich bosqichini o'sha yerda o'rganadi.

Bog'chalar davlat

mas'uliyatini his qilishni o'rganadi.

**-Maktab davri qanday kechadi?**

-Bizda ham boshlang'ich ta'lim mavjud bo'lib, u besh yilni o'z ichiga oladi. 1-,2-,3-sinf o'quvchilari bir haftada to'rt kun tahsil oladilar. 4-,5-sinf o'quvchilari besh kun o'qiydi. Rasm, chet tili, jismoniy tarbiyadan tashqari boshqa fanlarni bitta o'qituvchi o'tadi. 5-sinfga o'tishdan oldin imtihon topshirib, boshlang'ich ta'limni tugatadi. Endi «Do'ra rahnamoi» davri boshlanadi. 6-,7-,8-sinflarda fanlar soni ham ko'payib, ta'lim biroz murakkablashadi. O'qishni davom

degan davrini boshlashi kerak. U sizning litseyingizga to'g'ri keladi. U bir yillik yoki uch yillik ta'limga ega. Birinchi yil nazariy bo'lib, barcha fanlar umumiy bo'ladi. Keyin o'quvchi o'zining yo'nalishini aniqlab, o'sha soha bo'yicha o'qiydi.

Yana sizlardagi kollej singari hunar o'rganadigan maskanlar ham mavjud bo'lib, ta'lim uch yil bo'ladi. Diplomi bilan korxonalarda faoliyat yuritish mumkin.

Universitetda o'qishni xohlovchilar esa bir yillik ta'lim, ya'ni «Pish donishgoh»ni o'qishi lozim. Universitetda davlat hisobidan o'qiydigan hamda shartnoma asosida o'qiydigan yoshlar bor. Undan tashqari, ozod universitetlar mavjud bo'lib, ular binosi va hajmi jihatidan kattadir. 250 sho'baga ega bunday universitetlarda ta'lim

**- O'quvchi yoshlar darsdan bo'sh vaqtlarida nima bilan mashg'ul bo'lishadi?**

-Bolalar va o'smirlarning fikrlarini rivojlantirish «Rushte fikriy kudakon va javanon» markazi mavjud bo'lib, u yerda bolalar darsdan tashqari o'zi qiziqqan yo'nalishi bo'yicha turli to'garaklarga bepul qatnashadi.



## YOSHLAR FIKRI CHAQIN MISOLI

tomonidan ta'minlanadi. Xususan,

«Sozmoni bezzesti» degan tashkilot bog'cha muassasalarini, uning sharoitlarini yanada yaxshilashga mas'ul. Bulardan tashqari, yana xususiy bog'chalar ham mavjudki, ular biror tashkilot, vazirliklar, korxonalar yoki bank tomonidan ochilgan bo'lib, ularning sharoitlari juda yuqori saviyada. Besh yoshdan keyin «Pish dabiston» degan davrda bolalar maktabga tayyorgarlik

ko'radi. Bir yil davomida bolalar o'qituvchi bilan munosabatda bo'lishni, maktab muhitidan qo'rqmaslik, oiladan uzilishdan cho'chimaslik, ta'lim olish



ettirmoqchi bo'lgan

o'quvchilar 8-sinfda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Chunki 9-sinfga imtihon va sinovlar orqali o'tilib, uni namunali bitirib, «Dobiriston»

pullik. Masalan, bu yil Ozod universitetga 1150000 nafar abituriyent hujjat topshirgan bo'lsa, ulardan 200000 nafari talaba bo'lish baxtiga muvassar bo'ldi. Eron bo'yicha 18 yarim million talabaga 1 million 80 ming nafar muallim saboq beradi. Undan tashqari, «Payomi nur» degan pullik universitet ham viloyatlarda o'zining sho'balarga ega bo'lib, unda o'qish sirdan olib boriladi. Hujjatlar ham internet orqali jo'natiladi. Yana bizda televideniye

Markazning bo'limlari Eronning chekka viloyatlarida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, markaz yilda minglab nusxada bolalar faoliyatiga oid, turli tadbirlar yozilgan video tasmalari va kompakt-disklar tarqatadi. Bugungi kun yoshlarimiz bilim va hunar bobida xorijlik tengdoshlaridan o'zib ketishga harakat qilyapti desam mubolag'a bo'lmaydi. Mana yaqinda bir o'quvchi yigit Gollandiyaga tibbiyotga oid uchta maqola jo'natgani va u faxriy birinchi o'rinni egallagani ma'lum bo'ldi. Yana davlatimiz shimolida joylashgan viloyatda yashovchi aka-ukalar o'zlari zilzila ofatini avvaldan sezuvchi mashina ixtiro qilib mukofotga ega bo'lishdi...

**-Gazetxonlarga tilaklaringiz.**

-Men o'zbekistonlik o'quvchi yoshlarning bilimiga chanqoqligini, mehr-oqibatligini, mehnatkash-u oqilligini ko'rib xursand bo'ldim. Ularning fikrlari va dunyoqarashlari eronlik bolalar bilan mushtarak ekan. Mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbekistonlik talabalar bilan eronlik talabalar tajriba o'rganish uchun o'zaro fikrlashyapti. Safarlar uyushtirilyapti. Men maktab o'quvchilari orasida ham ana shunday bordi-keldi safarlari uyushtirilishini, o'zaro do'stona aloqalarini o'rnatishini istayman. Hatto avvaliga xat yozishib do'stlashishlari tarafdoriman.

Fursatdan foydalanib, kundan-kun chiroy ochayotgan, bunyodkorlik ishlari avj olayotgan O'zbekistonni istiqloq bayramining 14 yilligi bilan chin dildan muborakbod etaman. Mustaqillik davrida ta'lim-tarbiya olayotgan, osuda osmon ostida beg'ubor bolalik nashidasini surayotgan o'quvchi yoshlarga «Sizlar eng baxtli bolalarsiz» degim keladi. Baxtingiz doimo butun bo'lsin, aziz istiqloq yoshlari!

**Suhbatdosh:**

**Muharrama PIRMATOVA.**

Shu yil 19-avgustda Moskva shahrida MDH tarkibidagi ishtirokchi-davlatlar orasida «Kitoblar san'ati» Ikkinchi Xalqaro tanlovi yakunlandi. Tanlovda Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Ukraina Respublikalari qatorida jonajon O'zbekistonimiz ham o'z kitoblari bilan ishtirok etdi. Hakamlar hay'ati e'tiboriga «Hamdo'stlik», «Madaniyatlar dialogi», «Mening Vatanim», «Bizning zamondosh», «Qiziqarli taqdir kitobi», «Kitob-bolalarga», «Art-kitob», «Mening universitetlarim», «Hamdo'stlikda bosilgan», «G'alaba», «Gran-pri» nominatsiyalari bo'yicha 200 nomdagi nashrlar taqdim etildi.

### Xalqaro tanlov

## SOVRINDOR KITOBLAR

Respublikamizdan hakamlar hay'ati tarkibiga Matbuot va axborot agentligi Bosh direktorining o'rinbosari Ro'zimat Safoyev ham a'zo bo'lib, uning ta'kidlashicha, MDH davlatlarida nashr qilingan 31 kitob o'n bir nominatsiya bo'yicha sovrinli o'rinlarga sazovor bo'ldi.

«Hamdo'stlikda bosilgan» nominatsiyasi bo'yicha «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti tomonidan 2005-yilda chop etilgan «O'zbek pazandalik san'ati» kitobi birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Quvayt xayriya jamg'armasining O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi, O'rta Osiyo musulmonlari Qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi ko'rlar jamiyati bosmaxonasi tomonidan chop etilgan muqaddas «Qur'oni Karim» kitobi, «Qiziqarli taqdir kitobi» nominatsiyasi bo'yicha ikkinchi o'rin oldi. Rossiya, Qozog'iston, Belarus Respublikasi, Ukraina, Armaniston, Moldova, Ozarbayjon noshirlari tomonidan taqdim etilgan kitoblar turli nominatsiyalar bo'yicha sovrinli o'rinlarni egallashdi. Bundan tashqari, hay'at tarkibi Qirg'iziston Respublikasini «Ruscha-qirg'izcha lug'at» hamda Hamdo'stlik davlatlari orasida madaniy aloqalarni mustahkamlagani uchun «Maxsus diplom» bilan taqdirladi.

**Gulchehra MUHAMMADJON.**



orqali maxsus o'quv «Omuzesh» kanali mavjud bo'lib, yoshlar undan samarali foydalanadi.

Eron Ta'lim va tarbiya vazirligi moddiy va ma'naviy jihatdan eng katta vazirlik hisoblanadi.

**-Bolalar nashrlariga ham to'xtalsangiz.**

-Eron Islom Respublikasida bolalar uchun maxsus nashriyotlar juda ko'p. Ular har bir yoshga mo'ljallangan kitobchalarni yiliga millionlab nusxada chop etadi. Kitoblarning mazmuni ham turfa. Masalan, tarixdan saboq beradigan, payg'ambarlar hayotidan so'zlaydigan, rang bilan bo'yashga mo'ljallangan kitob, hisobni o'rgatadigan kitob va shu kabilar bisyor. Ko'rib turganingizdek, qog'oz va rang-tasvirlari sifati yuqori bo'lgan ushbu kitoblar arzonligi bilan ahamiyatga molik.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

- Endi, - dedi Boymurod aka salmoqlanib, - jindan qo'rqmasayam bo'ladi. - Shunday deb u menga xursand jilmaydi. Etsiz yuzlarida, peshonasida chiziqchalar paydo bo'ldi. Mittigina ko'zlari yosh bolanikidek yiltiradi.

- Siz shunday deb o'ylaysizmi? Boymurod akaga yana shubha aralash qaradim. Xayolimda u kishi tun bo'yi jinlar bilan maishat qilib o'tirganu jinlarni aldab-suldab, otang yaxshi, onang yaxshi deb yelkalariga qoqib, bog' hovlimizdan chiqarib yuborgan.

- Mulla deyman, - dedi Boymurod aka menga ziyrak ko'z tashlab, - sizni rostdanam hech narsadan xabaringiz yo'qqa o'xshaydi-a?

- Men yelka qisdim.

- E, omon bo'ling, bilsangiz itingiz jinlarni haydab chiqardi, ha, zo'r ekan. Voy bo'-o'-y... Jinlar-chi, sizga aytsam, oldin yong'oqni tagiga olovni gurullatishib, undan keyin ey gumba-kagum, gum-baka-gumlab eze-e-eb o'yinga tushib ketishdi...

Boymurod aka qo'lini orqasiga qilib, yer suzandek goh o'ngga, goh chapga tashlab jinlarning o'yinini ko'rsata boshladi. Sal o'zimni chetga oldim.

- Shu payt, - deya qaddini rostladi Boymurod aka, itingiz iskananib, yong'oq tagiga borib qoldi-yu, voh, voh, voh... Akillab jinlarni shundoq to'zg'itdiki...

- It sizga akillagandir, - dedim Boymurod akaga astoydil rahmim kelib.

- He-ey, mulla-ey, menga qandoq akillaydi, men hov tepada, vagona bo'lsam. Jinlar bu yoqda, yong'oq tagida bo'lsa...

- Shunga hayron bo'lyapman-da, siz qayoqda-yu yong'oq qayoqda. Qanday qilib siz jinlar yoqqan olovni, yana shoh tashlab raqsga tushganlarini ko'rasiz?

- E, u yog'ini qo'yovring, o'zimam hayronman. Hamma gap itingiz baraka topkurda... Jinlar itingizdan qo'rqib to'zg'ib ketishdi. Qo'tir buloqqa qarab

yo'lsolishdi. It demagan orqalaridan quvib akillab borovurdi... Oh, it endi asfalasofilinga ketti, dedim o'zimcha. Jinlar hiyla qilisharkan-da, mulla. Dushmanini orqasidan ergashtire-eb borisharkan-da, birorta chuqur o'ragami, jargami tushirvorisharkan. Hayriyat, vaqtida hushtak chalib, itingizni chaqirib oldingiz. Men bo'lsam hammasini ko'rib, bilib turib hushtak chaldingiz deb o'ylabman.

- Yo'-o'q, - dedim bosh chayqab, - Oqtoshning ovoizidan uyg'onib ketdim, keyin qo'shnilarining joniga tegmasin deb, chaqirvoldim. Bor gap shu!

- Xudo uyg'otgan-da sizzi, Xudo.

- Albatta, - dedim, - Xudo kechqurun o'ldiradi, erta bilan yana tiriltiradi. Uyqiyam o'lgandek gap. Bari xudodan...

Boymurod akani bir kechada savdoyi bo'p qopti deb o'ylasam... o'zimam bir vaqtlar Boymurod akaning holiga tushganim yodimga tushdi. Talabalik yillari edi. Qo'qonga praktikaga borgandik. Og'aynim Mirvohid bilan yotoqxonada turgimiz kelmadi. Qo'qonning mashhur G'ishtli masjid deb nom chiqargan choyxonasida ovqatlanib o'tirib, choyxonachidan ijaraga uy topib berishini iltimos qildik. Choyxonachi bizga boshdan-oyoq qarab oldi-da, ko'rinishimiz ma'qul kelib qoldimi «kechga tomon bir xabar olinglar», - dedi.

G'ishtli masjidning hovlisi yozgi choyxonaga aylantirilgan, xonaqolariga kutubxona, qiroatxonalar ko'chib kelgan edi. Biz kutubxonashunoslik fakultetining talabalari bo'lganimiz uchun ham xonalarni miriqib tomosha qilgan edik.

Mirvohid ikkimiz kelishilgan vaqtda samovarchiga ro'baro' bo'ldik. Samovarchiyam ishlaridan bo'shab, bizni kutib o'tirgan ekan. U kishi bizni G'ishtli masjidning shundoqqina orqa tarafidagi torgina yo'lakka boshladi. Yo'lak oxirida

bir tabaqali eshik ko'zga tashlanardi. Ijaraning shundoq ajoyib joydan topilganiga quvonib ketdik. Hovli torgina bo'lib, uniyam bitta daraxt-u va bitta so'ri egallab turardi. O'ng tarafda bir uy, dahlizi bilan, ro'parada yana bir xona ko'rindi. Ichkarida temir karavotlar. Ma'lum bo'ldiki, bu yer choyxonachining mehmonxonasi. Boshqa odam qo'ymaslik sharti bilan bir oyga kelishdik. Choyxonachi har kuni tushlik paytida sho'rvaning yog'liq joyidan suzib, dastyor

## OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH



boladan kiritib turishga va'da berdi. Lekin ijara haqini oldindan qurtdek sanab oldi.

Biz boshqa kursdoshlarimiz nazarida, birimiz yozuvchi, birimiz shoirmiz. Ijodkorga tinchlik kerak-da, Yotoqxonada degani - kirdi-chiqdi, vag'ir-vug'ur joy. Kursdoshlarimizam bir-ikki kelib, so'rida o'tirib, miriqib ketishdi.

Bir kuni yonimizdagi guzarhaga birov bir tog'ora doroyi uzum olib chiqibdi. Qo'qonda qizil chilgi uzumdanam oldin pishadigan shunaqa uzum bor ekan. Rangi

Erkin MALIKOV

qandaydir oqish, ko'kimtir. Ko'ksultonga o'xshab ketadi. Mevasi maydaroq, tig'iz. Ta'mi shirin, oq tutning mazasini beradi. Karsildoq. Lekin yangi bo'lgani uchun narxi osmonda. Talabani cho'ntagiga to'g'ri kelmaydi. Ko'nglim sust ketib turganini ko'rgan Mirvohid:

- Men Yakkatutga ketdim, ertalabki nonushtaga jizzali non, bir savat doroyi, qaymoq yetkazib kelaman, - deb qoldi.

Mirvohidning Yakkatutda xolasi, xolasi bilan yashaydigan opasi bor edi, kelgandan beri boraman deb yurgan edi. Bahona topilib qoldi. Mirvohidni avtobusga kuzatib, uyga qaytdim. Qulfni ochib, hovliga kirsam qo'shni qiz, o'rtadagi tuynukdan o'tib, hovliga suv sepib, supirib yuribdi. U har kuni biz kelguncha hammayoqni chinnidek qilib qo'yardi. Toshkentga o'qishga borsa yordam berishimizga o'ziyam, ota-onasiyam umid qilardi. U o'ninchini bitirayotgan edi. Bizning kursdosh qizlarimiz bilan allaqachon apoq-chapoq bo'lib ketgan, hammamizni uyiga mehmongayam taklif qilgan edi. Bizni akasidek ko'rar, o'zi durkungina ko'ringani bilan, qiliqlari g'irt bolacha edi. Har kuni o'rtoqlarining nomini aytib she'r yozdirib olardi. Mirvohid bilan o'z holimizcha xayol suribmi, kitob o'qibmi o'tirsak, sezdirmay kelardi-da, «vah» deb qo'rqitgan bo'lar, kutilmaganda suv sepib, qochardi. Biz undan ba'zida bezor ham bo'pketardik. Onasiga devor osha shikoyat ham qilardik. Onasi bo'lsa u yoqdan: «Ayb o'zlaringda, popoch, popoch qilib boshlaringga chiqarvoldilaring, ayamasdan bir-ikki jonini achitinglar, esi kirib qoladi», derdi. Keyin orqasidan qo'shib qo'yardi: «Hoy, qiz o'lgur, bu yoqqa qara, bunaqada seni o'qishga yuborib bo'pman, erga berroraman». «To'g'ri qilasiz, xola», deb biz ham bu yoqdan tasdiqlardik.

(Davomi bor).

O'zi mendan atigi ikki yosh katta, beshinchi sinfda o'qiydigan Dilbar (opacham)ning avzoyi opam bilan Anvar o'rtog'imni tug'ilgan kuniga sovg'a olish uchun yonimizdagi bozorchaga ketgan paytimizdayoq ancha-muncha buzilgan edi. Qaytishimizni o'ziyam ilhaq bo'lib poylab o'tirgan ekan, ko'cha eshikni ochib, dahlizga qadam qo'yganimiz zahoti ichkari uyga kirishimizga ham qo'ymay, yugurib yonimizga chiqdi-da, basharasini menga tumtaytirib:

- Nima olding? - dedi.

- Lazer, - deganimni bilaman, shu birdan jinnisi qo'zidi-yuv.

- Sen ataylib lazer oldiribsan, deb uvvos soldi. - Meni lazerim yo'qligini bilarding.

- Men ataylab qilganim yo'q, - dedim darrov bozorda besh yuz so'mga shundan boshqa tuzukroq narsa yo'q ekan. Tushunib, ovoizini o'chirarmikan, desam, qatta? Qaytaga battar jig'anagi chiqib:

- Sen ataydan qilgansan. Meni jig'imga tegish uchun, deb baqirdi. Shu qilganingga endi hech qayoqqa bormaysan, lazer menga bo'ladi, tushundingmi?

Unga meniyan jahlim chiqib ketdi.

- Bor yo'qol, men ataylab qilganim yo'q, - deb baqiruvdim:

- Ataylab qilgansan, ber bu yoqqa lazerni. Menga kerak lazer, - deb qo'limga yopishdi.

Unga opam:

- Hay Dilbar, - deya yelkasidan ushlab, sudrab

televizorlik uyga obkirdilar-da, kresloga o'tqazib qo'yuvdilar, kap-katta qiz o'tirilib, astoydil yig'lashga tushdi. Adam ishdan charchab kelganlariga o'zi endi yarim soat bo'luvdi. Ichkari uyda dam olayotuvdilar. Shovqinni eshitib:

## LAZER

Ilkora

- Nima gap? - deya chiqib keldilar.

- Ana, adamniyam bezovta qilding, jinni, - dedim Dilbarga.

- O'zing jinnisan, ovozingni o'chirib o'tir, tushundingmi? - dedi Dilbar hiqillashni qo'ymay.

- Nima bo'lardi? - dedilar opam. Hunarini ko'rsatvotti erka qizingiz. G'ayirnisa!

- Men g'ayir emasman, battar uvilladi Dilbar.

Unga shu payt opamniyam jahllari tutdi.

- O'chir ovozingni, - deb baqirdilar. Nima endi seni deb birovni tug'ilgan kuniga narsa ololmaymizmi?.. Adasi, o'chiring, bunizzi ovoizini hozir bir narsa qip qo'yamasidan.

- Adam ajablanib birpas opamga qarab turdilar-da, xotirjam va bosiq ovoz bilan:

- O'zingni bosib ol, - dedilar. Keyin Dilbarga qaradilar. Qizim, Dilbar qizim uyat bo'lmaydimi?

- Ada-a, meni gapimni eshiting.

ABDURAHIM

- Xo'p, eshitaman, faqat yig'lamasdan gapira olasizmi?

- Xo'-o'p, Dilbar ko'z yoshlarini yengiga artdi. - Bu Salimizni o'rtog'i Anvarni-chi, o'zim ko'rganman, bir emas ikkita lazeri bor. Menda bo'lsa, bittayam yo'q. U birdan xo'rliqi kelib, yana ko'z yoshlarini oqizishga tushdi.

- I-i-i, hozirgina yig'lamayman deb aytuvding-ku, qizim.

- Yig'lamayman. U-v-v. Chidolmayapman-da faqat.

- Bo'ldi endi, yig'layvermagin hadeb, bo'lmasa gapingga tushunolmay qolaman, - dedilar-de. Dilbarni ovozi sal tingach, adam opamga qaradilar. Nima ekan o'zi, u lazeri?

- Voy, bilmaysizmi? - hayron bo'ldilar opam. Ko'chada bolalar o'ynab yurishadi-yu doim. Ko'rmaganmisiz hech?

- Yo'q, e'tibor bermagan ekanman.

- Salim, ko'rsat adangga.

Men darrov eni-bo'yi adam chekadigan sigaret qutisidan sal kichikroq qutichaning ustidagi salafanini ehtiyotlab ochdim. Noxtotni yarmiday keladigan yapaloq temirchalarni chiqarib: - Bu batareykasi, - dedim. Keyin kichkina qalamcha shaklidagi yaltiroq sariq trubachani olib, orqasidagi buraydigan qoqog'ini burab ochgach, ichiga batareykalarni solib, boshqatdan yopdim-da, adamga uzatdim.

(Davomi bor).